



**KOREYS TILIDAGI SO'ZLARNING  
ETIMOLOGIYASI VA ULARNING XALQ TABIATIGA  
BOG'LIQLIGI**

**Ubaydullayeva Dilnavoz Shuhrat qizi**  
**Student of the Department of Philology and**  
**Language Teaching (Korean language)**  
**of the Uzbekistan State World Languages University**

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Koreys tilidagi so'zlarning etimologiyasini va Koreys xalqi tilining tabiatga bo'lgan munosabati bilan bog'liqligini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada, koreys xalqining tabiatga bo'lgan munosabati tilida qanday aks etganligi o'rganiladi.

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению этимологии слов корейского языка и связи языка корейского народа с его отношением к природе. Также в статье рассматривается, как отношение корейского народа к природе отражается в их языке.

**Annotation:** This article explores the etymology of Korean words and the relationship between the language of the Korean people and their relationship to nature. The article also examines how Korean people's attitude to nature is reflected in their language.

**Kalit so'zlar:** Hangul(한글), Han(한), Jeong(정), Koryo(고려), Sijo(시조)

**Ключевые слова:** Хангыл(한글), Хан(한), Чон(정), Корё(고려),  
Сиджо(시조)



**Keywords:** Hangul(한글), Han(한), Jeong(정), Koryo(고려),  
Sijo(시조)

**Koreys tili** – koreyslar soʻzlashuvda foydalanadigan tildir. Bu til Oltoy tillariga baʼzan esa toʻngus-manjur tillariga kiradi, degan taxminlar bor. KXDR (ShimoliyKoreya) hamda Janubiy Koreyaning rasmiy tili. Bu tilda 66.3 mln. Kishi soʻzlashadi. Uning genetic jihatdan boshqa tillar bilan bogʻliqligi aniqlanmagan. Koreys tilining shimoli-sharqiy, shimoli-gʻarbiy, markaziy, janubi-sharqiy, shimoliy va janubiy shevalari bor. Koreys tilida 40 fonema mavjud. Ulardan 19tasi undosh va 21tasi unli. Feʼl zamonlari hozirgi, 2 ta oʻtgan va 2 ta kelasi zamon shakllaridan iborat. Sonlar birlik va koʻplikka farqlanmaydi. Leksikasi va lugʻatida xitoy tilidan, moʻgʻul, sanskrit, va baʼzi Yevropa tillaridan oʻzlashgan soʻzlar bor.

Koreys tili 1993-yilgacha „standart til“, 1966-yilda „madaniy til“ degan nom olgan. Bu tilning 2 turi ham KXDR hamda Koreya Respublikasida qoʻllanib kelinadi. KXDRda koreys yozuvi, Koreya Respublikasida xitoy-koreys aralash yozuvi qoʻllanadi. Koreyslarda oʻz yozuvlari yaratilmaguniga qadar ular boshqa baʼzi bir Markaziy Osiyo davlatlari singari xitoyliklarning “Hanja” hamda “Hanzi” yozuvlaridan foydalanishgan. Ammo bu davrda Xitoy tilida yozib Koreys tilida oʻqish qiyin edi. Bundan tashqari Xitoy tilida iyerogliflar koʻpligi sababli koʻpchilik oddiy aholi uni oʻrgana olishmagan. Keyinchalik, 1443-yilda qirol Sejong tomonidan alifbo “Hangul” (한글) tuziladi.

**Asosiy sababi:** Oddiy xalq ham ilmi boʻlishi, oʻqish va yozishni oson oʻrganishi uchun koreys alifbosi yaratilgan.



Bu Koreys tili rivoji uchun juda katta qadam bo'ldi. 1446-  
훈민정음 (Hunminjeongim) deya nom berilgan. 1997-yilda  
YUNESCO jahon milliy merosi sifatida tan olindi. Yuqorida aytib  
o'tilganidek, koreys alifbosi 19ta undosh va 21ta unlidan iborat.  
Qirol Sejong tuzgan vaqtlarda esa unda 28ta harf mavjud bo'lgan.

Biroq keyinchalik undagi xato va kamchiliklar o'rganilib ba'zi harflar olib  
tashlangan ba'zilari esa qo'shilgan. Koreys tilidagi barcha harflar uchta belgi asosida  
yaratilgan. Bular: osmon(하늘)[●], odam(사람)[ ]], yer(땅)[一]. Har yili 9-  
oktabrda Koreyada Koreys alifbosi kuni keng miqyosda nishonlanadi.

**Koreys tilining evolyutsiyasi haqida gapiradigan bo'lsak**, tarixiy davrlarda  
asosiy ikki bosqichni: “Old Korean”(Qadimgi Koreys tili) hamda “Middle  
Korean”(O'rta davr Koreys tili) ni o'z ichiga oladi.

**Old Korean**, ya'ni qadimgi davr – Miloddan avvalgi 1-ming yillikdan to  
milodiy 10-11-asrlargacha davom etgan. Bu davrda ko'pchilik Koreyadagi qabilalar  
turli xil tillarda gaplashishgan bo'lsa-da, bu davr tilini deyarli hamma tushunishgan.  
Bu davrdagi tilda undoshlar unilarga qaraganda ancha ko'proq bo'lgan. Xitoy  
yozuvi “Hanja” Koreyaga miloddan avvalgi 4-3-asrlarda kirib kelgan. Bu yozuv  
dastlab Koreyada faqatgina yozma til sifatida xizmat qilgan, ammo u juda ham  
murakkab va qiyin bo'lib, o'rganish uchun juda ham ko'p bilim talab qilingan.  
Qadimgi koreyslar ideogrammalardan foydalanishgan. Bu davrdagi yozma  
manbalar “SamgukSagi”(Uchqirolliktarixi) – unda Koreys tili haqida xitoy yozuvi  
asosida yozilgan. “SamgukYusa”(Uch qirolliklarning yodgorliklari) – u ham  
xitoycha yozuvda yozilgan. U koreys tarixiy voqealari va afsonalarini o'z ichiga  
oladi. Xitoy tilining ta'siri baribir Koreys tilida qolib ketgan. Masalan, ko'pchilik  
so'zlar ham haligacha ishlatiladi. Bu so'zlar Xitoy tilidan olingan bo'lib, lekin  
Koreyaning o'ziga xos talaffuzi va grammatikasi bilan uyg'unlashgan. Bu so'zlar  
ko'pincha ikki yoki uch bo'lakdan tashkil topgan. Misol uchun:



- **Koreyscha:** hak (학) - "ilm", **Xitoycha:** 學 (xué)
- **Koreyscha:** gwon (권) - "boshqaruv", **Xitoycha:** 權 (quán)

Bu soʻzlar Xitoydan kelgan boʻlsa-da, ular Koreyaning oʻz tilida talaffuz qilinadi va grammatik jihatdan Koreys tiliga moslashtirilgan.

### **Raqamlar borasida koreyslar ham Xitoyliklarnikini keng qoʻllashadi.**

#### **Xususan:**

• **Rasmiy raqamlar:** Xitoycha sonlar, masalan, telefon raqamlari, yillar, sanalar va boshqalarda ishlatiladi. Misol uchun, "1999-yil" deyilganda Xitoycha sonlar ishlatiladi.

• **Sanalar va vaqt:** Xitoycha sonlar vaqtni koʻrsatishda ham ishlatiladi, masalan, soatni aytishda yoki sanani aytishda ishlatiladi.

• **Katta sonlar:** Xitoycha sonlar katta sonlarni ifodalashda ishlatiladi, chunki ular ancha rasmiydir.

### **Xitoycha sonlar Koreys tiliga taʼsiri asosan ikki jihatdan seziladi.**

**Birinchisi yozuvda** – Koreyada rasmiy yozuvda Hanja sonlari ishlatiladi, bu esa Xitoy tilining taʼsirini koʻrsatadi. **Ikkinchisi talaffuzda** - Hanja sonlarining talaffuzi Koreys tilida Xitoy tili talaffuziga moslashgan boʻlsa-da, koreyscha talaffuzda baʼzi oʻzgarishlar mavjud.

**Middle Korean** (oʻrta davr) –10-15-asrlar oraligʻida, ayniqsa Goryeo sulolasi (918–1392) va Joseon sulolasi (1392–1897) davrida. Bu davrda Koreys tili ancha soddalashgan. Bu davrda ikki xil talaffuz tizimi mavjud boʻlgan: oʻqish tili hamda ogʻzaki talaffuzdir. Hangul ham aynan shu davrda yaratilgan. Oʻrta asrlarda asta-



sekin Hangul alifbosiga o'tilgan. So'zlashuvda ham turli darajalar va hurmat ifodalari (7xil) qo'llanilgan. O'rta Koreys tilida yozma til, ko'proq yuqori ijtimoiy sinf vakillari tomonidan ishlatilgan. Bu davrda Koreyada ilmiy va madaniy rivojlanishlar yuz berdi. Buning natijasida yozma adabiyotlar, diniy matnlar va tarixiy asarlar ko'paydi. Joseon sulolasi hukmronligi davrida, yozma adabiyot va san'atda katta taraqqiyot bo'ldi. Xususan, o'rta davr Koreys tilida yozilgan asarlar Koreya tarixining muhim qismiga aylandi.

**Xo'sh shu o'rinda farqlari va o'xshashliklari borasida savol tug'iladi, ularga esa bir nechta misollar keltirishimiz mumkin:**

- Yozuv tizimida Qadimgi davrda Hanja, O'rta davrda esa Hangul ishlatilgan
- Fonologiyada ham xuddi shunday, Qadimgi davr xitoy tiliga yaqin bo'lgan bo'lsa, o'rta davr Koreys talaffuziga yaqinlashgan.
- O'rta asrlarda ilm-fan, adabiyot va madaniyat ancha rivojlangan. Bu davr Koreys tili rivoji uchun poydevor bo'lgan.

### **Koreys tilidagi ayrim terminlar**

**Han(한)** – atamasi koreys tilidagi keng tarqalgan va muhim so'zlardan biridir. Han koreys madaniyatida asosan qayg'u, g'amginlik yoki biror umid ortidan intilish his-tuyg'ularini ifodalovchi so'z sifatida foydalaniladi. Han koreys xalqining uzoq tarixiy umri davomida yuzaga kelgan qayg'uli kunlar, adolatsizliklar, ruhiy og'irliklarni bildiruvchi so'z sifatida paydo bo'lgan. Bu so'z azob-uqubatlarga qarshi kurash uchun kuchni ham anglatadi. Biror bir shaklda amalga oshmasa ham xafa bo'lish va kurashish hissiyotlarini anglatadi. Han ni turli xil filmlarda, musiqalarda yoki adabiyotlarda ko'rishimiz mumkin. U yanada mazmunliroq gapirishga yordam beradi. Bu so'zning yana bir necha ma'nosi bor:



**Han** (한) — bu **Koreyscha** son bo'lib, u ko'pincha "**bir**" yoki "**birinchi**" ma'nolarida ishlatiladi. Masalan, **Han-guk** (한국) — "Koreya" degan ma'noni anglatadi, bu so'z Koreya xalqi yoki mamlakati haqida gapirganda ishlatiladi.

**Han** (한) — koreys tilida ba'zan "**katta**", "**yirik**" degan ma'noni ham anglatadi. Bu so'z, odatda, ba'zi iboralar yoki nomlarda, masalan, **Han-gang** (한강) — "Han daryosi" (Koreyada joylashgan eng katta daryo) kabi ishlatiladi.

**Han** (한) koreys madaniyati va tilida juda kuchli ma'no kasb etadi. Bu so'z Koreya xalqining tarixiy og'riqlarini, ruhiy holatini, adolatsizlikka qarshi kurashini va amalga oshmagan orzularini ifodalovchi psixologik va madaniy tushuncha sifatida juda muhimdir. Bu holat nafaqat xalqning tarixi bilan bog'liq, balki uning tilida ham chuqur iz qoldirgan.

**Jeong** (정) – koreys madaniyatidagi yana bir atama bo'lib, u hamdardlik, sevgi, muhabbat, tinchlik kabilarni bildiradi. Bu so'zning nozik ammo juda kuchli hissiy ma'nolari ham bor. Jeong shaxslar o'rtasidagi mustahkam bog'lanishni anglatadi. Bu uzoq vaqt davomida birga bo'lgan insonlar orasida shakllanadi. Bu munosabatlardagi: samimiyat, hamdardlik, hamma yaxshi hislatlarni bildiradi. Koreyscha **Jeong** faqatgina romantik yoki oilaviy munosabatlarni bildirish bilan cheklanmaydi, balki **yana boshqa ijtimoiy aloqalarda**, misol uchun, qo'shnilar o'rtasida, yoki hatto uzoq vaqt davomida bir-birini bilgan notanish odamlar o'rtasida ham bo'lishi mumkin. Koreys filmlaridagi samimiy his-tuyg'ularni yanada real namoyish etish uchun Jeong juda ham qo'l keladi. Bunday filmlarda koreys madaniyati yanada chiroyli ekanligiga amin bo'lishimiz mumkin.

**Koryo** (고려): bu koreys tili rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lgan. Koreys tili Oltoy til oilasiga mansub deb qaraladi. Ba'zi manbalarda



mongol, turkiy va tungus tillariga aloqador deyilsa-da, bu hali aniqlanmagan. Koryo davrida Xitoy tilining ta'siri juda ham katta bo'lgan. Aynan shu davrda ideogrammalardan foydalanilgan. Xitoyning Konfutsiylik va Buddaviylik ta'limotlaridan kelib chiqqan so'zlar va iboralar ham koreys tiliga kiritilgan. Koryo davrida koreys tilining o'ziga xos mahalliy shakllari ham rivojlanib borgan. Bular asosan **qishloq hududlarida**, kichik guruhlarda yoki maxsus ijtimoiy sinflarda qo'llanilgan. Xalq tili va oddiy odamlarning so'zlashuvi, yuqori ijtimoiy tabaqalarning foydalanadigan rasmiy yozuvi va so'zlari bilan farq qilardi. Koryo davrining oxirida ham Hangul hali yaratilmagan edi. Yozuv tizimida Hanja keng qo'llanilgan davr. Koryo davrida koreys tili, asosan, Xitoy ta'sirida bo'lib, ko'plab xitoycha so'zlar va yozuv tizimlari koreys tiliga kirgan. Shuningdek, xalq tili, mahalliy tillar va grammatik o'zgarishlar ham koreys tilining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Tilda evolyutsiya jarayonlarining davom etishi va o'zgarishi Koryo davridan keyingi Joseon davrida yanada kuchaygan, chunki Hangul yaratilishi bilan koreys tilining mustaqil yozuv tizimi paydo bo'lgan.

### **Madaniyatning tilga ta'siri**

**Sijo(시조)** – bu Koreyaning eng qadimiy va mashhur she'riy janrlaridan biri bo'lib, Koryo davrida shakllangan. Sijo she'rlar asosan 3qatordan va 14-16 bo'g'indan iborat qilib yozilgan. Har bir qatorning aniq bir tuzilishi bo'lgan. **Bular:** **Birinchi qator** - She'ning boshlanishi bo'lib, mavzu yuzasidan tanishtirish, voqea yoki asosiy fikr keltiriladi. **Ikkinchi qator** - Birinchi qatorning g'oyasi izohlanadi. Bu qatorda ko'p hollarda tahlil keltiriladi. **Uchinchi qator** - She'ning yakuniy qismi bo'lib, unda xulosa yoziladi yoki axloqiy saboq keltiriladi.

Sijo she'ri asosan, sevgi, tabiat, hayotning mazmuni va go'zallik kabi mavzularni yoritib bergan. Bunday she'rlarda asosan turli hikmatlarga bog'liq



bo'lgan ramzlar beriladi. Bunday she'rlar qadimda juda ham muhim o'ringa ega bo'lgan, bugungi kunga kelib ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

**Afsona va eposlar** – Koreya madaniyati, til haqidagi turli tushunchalarni avlodlar avlodga yetkazish uchun eng qulay vosita bo'lgan. Koreya afsonalari va eposlari ko'pincha tarixiy voqealarni, insoniyatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettirgan. Koreya eposlari nafaqat xalq og'zaki ijodi sifatida shakllangan, balki rasmiy yozuvda ham ko'plab so'zlar yuritilgan. **“Samguk Yusa”**(삼국유사) Koreys eposlaridan biri bo'lib, unda 3ta qadimiy davlatning tarixi va afsonalari keltirilgan. Bu asar orqali ko'plab ibora va so'zlar Koreys tiliga kirib kelgan. Koreya afsonalaridan ayrim ramzlar ham kirib kelgan. **Masalan:**

**“Cheong”**(청, 청정) – tozalik va muqaddaslikni ifodalaydi.

**“Baek”**(백) – so'zi oq rangni, poklikni anglatadi.

**“Sin”**(신)–“xudo” yoki “kuch” kabi ma'nolarni anglatadi.

Koreya afsonalari va eposlari koreys tiliga katta ta'sir ko'rsatgan, chunki ular tilning leksikasini, grammatikasini va semantikasini boyitgan. Bu afsonalar va eposlar, faqat hikoyalar sifatida emas, balki madaniy va ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi vosita sifatida ham tilni shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Ularning ta'siri, ayniqsa, so'zlarning ramziyligi, diniy va tabiiy tushunchalarga asoslangan ifodalarda va og'zaki adabiyotda namoyon bo'lgan.

Shunday qilib, Koreys tili bugungi kundagi ko'rinishiga kelishi uchun juda ham uzoq davrlarni boshidan kechirgan va bu til bugungi kunda ham rivojlanib bormoqda. Boshqa chet mamlakatlarida ham keng miqyosda o'rganilayotgan tillar ro'yxatida turadi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR  
RO'YXATI:**

1. The Korean Language. I. S. Yang. 1990. C-45-46
2. The History of the Korean Language. Ho-Min Sohn. 1999. C-30-33
3. Korean: A Linguistic Introduction. William O'Grady, John Archibald, Mark Irwin, and Jongho Lee. 2005.
4. The Korean Sijo: Its Form and Meaning. Peter H. Lee. 1986. C-10
5. Sijo and Korean Poetry. Jeyseon K. Lee. C-27 // [144958215.pdf](#)
6. Korean Linguistics (Korean Language Society Journal)
7. Language and Linguistics (Language and Linguistics Journal)
8. **Naver Dictionary:** <https://dict.naver.com/>
9. К. Б. Куротченко, М.В. Леонов, Ю.И.Швецов. КОРЕЙСКИЙ ЯЗЫК. Москва- 2005
10. **Korean Studies:** <http://www.koreanstudies.org/>